

AVTOTRANSPORT KORXONALARINI JIHOZLASHNING AHAMIYATI

Namozova Barno Behzod qizi
JizPI, "Transport" fakulteti
121-21 A va Tyo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Avtotransport korxonalarida harakatdagi tarkibdan samarali foydalanish mexanizatsiyalashganlik darajasiga texnologik jihozlar bilan ta'minlanganligiga bog'liq. Maqolada avtotransport korxonalarini yangi avtomobillarning parametrlariga moslashtirish, takomillashtirish, zamonaviy texnologik jarayonlarga qo'llashda ishlab chiqarish texnika bazasini rivojlantirishning turli usullari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: avtotransport korxonasi, qayta qurish, kengaytirish, texnologik jihozlash, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, ishlab chiqarish, texnologik jarayon, ekspluatatsiya, mexanizatsiyalashganlik darajasi.

Аннотация. Эффективное использование подвижного состава на транспортных предприятиях зависит от уровня механизации и технологического оснащения. В статье анализируются различные способы адаптации транспортных предприятий к параметрам новых автомобилей, их совершенствования, развития технической базы производства в условиях применения современных технологических процессов.

Ключевые слова: автотранспортное предприятие, реконструкция, расширение, технологическое оснащение, техническое обслуживание, ремонт, производство, технологический процесс, эксплуатация, уровень механизации.

Abstract. The efficient use of rolling stock at transport enterprises depends on the level of mechanization and technological equipment. The article analyzes various ways of adapting transport enterprises to the parameters of new cars, their improvement, the development of the technical base of production in the conditions of the use of modern technological processes

Key words: motor transport enterprise, reconstruction, expansion, technological equipment, maintenance, repair, production, technological process, operation, level of mechanization.

Kirish

Avtomobil transporti korxonalari (ATK) ishlab chiqarish texnik bazasining rivojlanishi va taraqqiyoti, asosiy fondni tashkil etish vositasi bo'lgan kapital qurilish bilan uzviy bog'liqdir. Asosiy fondni keng miqyosda qayta tiklash, yangi korxonalar qurish, mavjud korxonalarni qayta qurish va kengaytirish va ularni texnik qayta jihozlash shaklida amalga oshiriladi. Yangi avtotransport korxonalarini loyihalashda

yoki mavjud bo'lgan avtotransport korxonasini rekonstruksiya qilishda texnologik jihozlarning turlari va modellari texnologik jihozlar tabeli, andozaviy loyihalar ilmiy-texnik adabiyotlar va internet sahifalarida keltirilgan zamonaviy jihozlar asosida tanlanadi, ularning miqdori aniqlanadi va ishlab chiqarish maydonlariga joylashtirish amalga oshiriladi.

Avtomobil transporti korxonalarining ishlab chiqarish texnika bazalari harakatdagi tarkibning ishlash qobiliyatini va uning kafolatli isonchliligini ta'minlashga smenalar oralig'ida saqlash, kunlik xizmat ko'rsatish, texnik servis va joriy ta'mirlash ishlarini bajarishga mo'ljallangan. Avtotransport korxonalarining ishlab chiqarish fondlaridan yanada samarali foydalanish masalasini hal etish uchun uning texnika bazasi elementlarining quvvati va katta-kichikligi haqida tushunchaga ega bo'lishi kerak. Avtotransport korxonalarining va elementlarining katta-kichikligi asosan xizmat ko'rsatilayotgan avtomobillar soni bilan belgilanadi.

Mavjud ATK larning ma'lum qismi namunaviy loyihalar asosida qurilgan ICHTB ga ega. Hozirgi vaqtda faoliyot ko'rsatayotgan aksariyat avtotransport korxonalari ishlab chiqarish texnik bazasi bozor iqtisodiyoti talablariga to'liq javob bermaydi, shu jumladan:

- texnologik jihozlari elementlarining yetishmasligi yoki ortiqchiligi;
- texnologik jihozlari elementlarining yangi avtomobillar geometrik parametrlariga mos kelmay qolishi;
- texnologik jihozlar bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi;
- ishlab chiqarishning atrof-muhitga salbiy ta'siri ortib ketishi;
- ilmiy-texnik yangiliklar (mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish, diagnostikalash)ning TXK va JT jarayoniga yetarlicha tadbiq etilmaganligi;
- ishlab chiqarishni boshqarish, ish o'rinlari va ishlab chiqarish ishchilari mehnatini tashkil qilishning sustligi;
- moddiy ta'minotning, yetarli darajada emasligi;
- texnologik jihozlarning gazballonli avtomobillar ekspluatatsiyasiga mos emasligi;
- TXK va JT mintaqalari ishlab chiqarish maydonlari bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi;
- ishchilar uchun tibbiy-maishiy va madaniy xizmatning yetarli emasligi va boshqalar.

Avtomobil transporti korxonalari ishlab chiqarish texnik bazasining rivojlanishi va taraqqiyoti, asosiy fondni tashkil etish vositasi bo'lgan kapital qurilish bilan uzviy bog'liqdir. Asosiy fondni keng miqyosda qayta tiklash, yangi korxonalar qurish, mavjud korxonalarni qayta qurish va kengaytirish va ularni texnik qayta jihozlash shaklida amalga oshiriladi.

Мавjud ATKlarni texnologik jihozlash-korxonа umumiy quvvatini oshirmasdan, ilg'or texnologik jarayonlarni, yangi zamonaviy jihozlarni, ishlab chiqarish jarayonini har tomonlama mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish vositalarini tadbiiq etish asosida, ishlab chiqarishning yoki ICHTB ayrim elementlarining samarasini va texnik-iqtisodiy darajasini oshirishga qaratilgan tadbirlar majmuasini bajarishni ko'zda tutadi.

Texnologik jihozlash, ma'naviy eskirgan va fizik yeyilgan texnologik jihozlarni (yuvish-tozalash, ko'tarish-eltish, stanoklar, payvandlash, bo'yash-quritish, temirchilik, nazorat-sinov, diagnostikalash va h.k.) almashtirish; tabiat muhofazasi obyektlarini (oqova suvlar, atmosferaga chiqarilayotgan ifloslangan havoni tozalash vositalari) modernizatsiyalash; korxonani markazlashtirilgan issiqlik ta'minoti, elektr-energiya, suv ta'minoti manba'lariga ulash; suvdan foydalanishning oqavasiz aylanma tizimini tadbiiq etish; muhandislik qurilmalari va kommunikatsiyalarini, isitish va shamollatish tizimlarini qayta o'tkazish; mehnatni ilmiy tashkil qilish vositalari va boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimini, elektron hisoblash texnikasini tadbiiq etish maqsadida o'tkaziladi. Avtotransport korxonalarini texnologik jihozlash loyihasining hisobini bajarish uchun quyidagi dastlabki ma'lumotlar tanlab olinadi, yetishmagan ma'lumotlar tahlil qilish va hisoblash yo'li bilan aniqlanadi:

1. Avtotransport korxonasining turi, vazifasi, o'rnatilgan joyi;
2. Avtomobillarning ishlash sharoiti toifasi - K_{ish} ;
3. Avtomobil va tirkamalar turi, toifasi va soni - A_i ;
4. Avtomobillarning ishlash tartibi - (D_{yi}, T_i) ;
5. Avtomobillarga TXK va T ish tartibi - (D_{ym}, m, a) ;
6. Avtomobilning kunlik yurgan yo'li - L_{ky} .

Avtomobillarning ishlash tartibida quyidagilar ko'rsatiladi:

a) Avtomobillarning yillik ish kuni:

-yo'lovchi transporti-taksi, avtobuslar uchun - $D_{yi}=365$ kun;

-yuk avtomobillari uchun - $D_{yi}=356; 304; 252$ kun .

b) Avtomobillarning yo'lda ishlash davomiyligi $m_y=1; 1,5; 2$ almashinuv (smena) ga teng bo'lishi mumkin.

c) Avtomobillarning yo'lda ishlash vaqti- T_y . Bunga haydovchilar tushlik vaqti - T_t va avtomobilni qabul qilish va topshirish vaqti - T_{qt} kiradi.

6. Kunlik ish haftasida ish vaqti $T_y=7; 10,5; 14$ soat, 5 kunlik ish haftasida $T_y=8,2; 12,3; 16,4$ soat, haydovchilar kunora ishlaganda $T_y=11,1$ soat bo'lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining **115-moddasiga binoan hodim uchun ish vaqtining normal muddati haftasiga 40 soatdan** ortiq bo‘lishi mumkin emas. Mazkur kodeksga asosan, Avtotransport korxonalarida 6 kunlik ish haftasida har kungi ishning davomiyligi 7 soatdan, dam olish kunidan oldingi kunda 5 soat qilib belgilanadi, 5 kunlik ish haftasida esa 8 soatdan ortib ketmasligi lozim.

Noqulay mehnat sharoitlaridagi, mehnat jarayonida sog‘lig‘iga fizikaviy, kimyoviy, biologik va ishlab chiqarishning boshqa zararli omillari ta’sir etadigan ishlarda band bo‘lgan hodimlar uchun ish vaqtining haftasiga 36 soatdan oshmaydigan, qisqartirilgan muddati belgilanadi [2].

a -kunlik ish vaqti O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi 115-moddasiga binoan belgilanadi.

Mintaqaning ish tartibi avtomobilning ish tartibidan farq qilishi mumkin. Masalan, avtomobil haftasiga olti kun ishlashi, mintaqalar esa besh kun ishlashi mumkin. Lekin, kunlik xizmat ko‘rsatish mintaqasining yil davomidagi ish kuni avtomobilning yil davomidagi ishga chiqish kunlariga teng bo‘lishi kerak.

Kunlik bosilgan o‘rtacha yo‘l L_{ky} beriladi yoki transport-izlanish ishlari hisobi asosida aniqlanadi (1-jadval).

1-jadval

ATK va uning filiallarida avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlesh mintaqasining ish tartibi (TLUM-01-91 bo‘yicha)

Harakatdagi tarkibga texnik xizmat ko‘rsatish va joriy ta’mirlesh ishlarining turlari	Yillik ish kuni D_{ym}	Sutkalik smena soni m	Smena vaqti
Kunlik xizmat ko‘rsatish ishlari	304	2	II, III
	356	3	I, II, III
	365	3	I, II, III
Diagnostika (D-1, D-2), 2-texnik xizmat ko‘rsatish, bo‘yoqchilik ishlari	252	1	I
	304	2	I, II
1-texnik xizmat ko‘rsatish	252	1	II
	304	2	II, III
Joriy ta’mirleshning ajratish-yig‘ish va sozlash ishlari	252	2	I, II
	304	3	I, II, III
	356	3	I, II, III
	252	1	I

Агрегат, chilangar-mexanik, elektrotexnik, ta'minot tizimi, shinamontaj, kamera yamash, temirchilik, misgarlik, payvandlash, duradgorlik, qoplamachilik ishlari	304	2	I, II
Taksomotor ishlari	304	2	I, II
	356	2	I, II
Аkkumulyatorlar batareyasi ishlari	305	2	I, II
	357	2	I, II

Istiqbolli avtomobillarga mo'ljallangan yangi korxonalar loyihalashda texnik xizmat ko'rsatish va talab me'yorlari avtotransport korxonalarini texnologik loyihalashning umumittifoq me'yorlari" (TLUM-01-91) dan olish mumkin

Аvtotransport korxonalaridagi ishlab chiqarish mintaqalari va ustaxonalarini texnolik hisoblash: Texnik xizmat ko'rsatish joriy ta'minot va diagnostika mintaqalari hamda ishlab chiqarish ustaxonalarining ish tartibi, yillik ish kunlari, kunlik ish vaqti davomiyligi (ishchi almashinuvlar soni va davomiyligi) bilan belgilanadi. Agar avtotransport korxonalarini qayta qurilayotgan bo'lsa, mavjud korxonaning ishlash tartibi qiymatlari qabul qilinadi, agar yangi loyihalalanayotgan bo'lsa, TLUM-01-91 tavsiyasiga ko'ra qabul qilinadi (2-jadval).

2 - jadval

Ishlab chiqarish mintaqalarining tavsiya qilinadigan ishlash tartibi (TLUM -01-91)

№	Harakatdagi tarkibning TXK va JT ishlari turlari	Korxonalar turlari			
		ATK va ularning filiallari		MTXKB, ishlab chiqarish-texnik majmui, markazlashgan ixtisoslik korxonasi	
		Yillik ish kunlari	Kundalik almashinuvlar	Yillik ish kunlari	Kundalik almashinuvlar
1	KXK	252	2	-	-
		304	2	304	2
		356	3	-	-
2	D-1, D-2	365	3	-	-
		252	1	-	-
		304	2	304	2
3	1-TXK	252	1	-	-
		304	2	-	-
4	2-TXK	252	1	-	-
		304	2	304	2
5	Joriy ta'mir:	252	2	-	-

	-Ajratishtirish-yig'ish va sozlash ishlari	304	3	304	2
		356	3	-	-
	Bo'yash ishlari	252	1	252	2
		304	2	304	2
	Akkumulyator ishlari	304	2	304	2
		356	2	252	2
	Taksometr ishlari	304	2	-	-
		356	2	-	-
	JT ishlarining qolgan turlari	252	1	252	2
		304	2	304	2

3-jadval

Harakatdagi tarkibning tavsiya qilinadigan ish tartibi (TLUM-01-91 bo'yicha)

№	Harakatdagi tarkib turi	Ishlash tartibi	
		Yillik ishlash kuni	Yo'lda bo'lish vaqti, soat
1.	Xizmatchi va muassasaning yengil, yuk avtomobillari, avtopoezdlar, avtobuslar	304	10,5
2.	Umumfoydalanish yuk avtomobillari va avtopoezdlar	305	12,0
3.	Marshrut avtobuslari va yengil taksilar	365	12,0
4.	Shaharlararo qatnaydigan avtopoezdlar	356	16,0
5.	Yo'lsiz sharoitda o'zi ag'dargich avtopoezdlar	356	21,0

Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va ularni tamirlash ishlarini bajaruvchi avtochilangarning qo'l mehnatini yengillatish, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarida avtomobilga turli tomonlardan ta'sir ko'rsatishda qulaylik yaratish, og'irligi katta bo'lgan agregatlarni avtomobildan yechib olish, ularni ta'mirlash uchun ustaxonaga yetkazish va avtomobildagi o'rniga qaytadan o'rnatish, avtomobil kuzovlarini yuvish, kuzovlarni ta'mirlash, avtomobil agregat va tizimlarini diagnostikalash va boshqa xizmat turlarini ko'rsatish maqsadida avtotransport korxonalarida texnologik jihozlardan foydalaniladi.

Kapital qurilish, rejalashtirish, loyihalashtirish, ishlab chiqarishning qurilish-montaj ishlarini va bitkazilgan obyektning loyiha quvvatini o'zlashtirishni o'z ichiga olgan investitsion jarayon yagona majmuaga tarkibiy bosqich bo'lib kiradi. Sanoat qurilishiga xos vazifalar avtomobil transporti kapital qurilishiga ham taalluqlidir. Asosiy fondni yaratish va tezlashtirilgan holda yangilash, ishlab chiqarish qurilishining kapital sarflari tarkibini takomillashtirish hisobiga uning samarasini oshirish,

obyektlarni ishga tushirish va qurilish muddatlarini qisqartirish, ishlab chiqarish qurilishini industriallashtirishni davom ettirish, qurilishning solishtirma tannarxini kamaytirish va sifatini sezilarli oshirish demakdir.

АДАБИЙОТЛАР РО‘УХАТИ:

1. **Тузов Н. С.**, Попов Е. В. Проектирование предприятий автомобильного транспорта. учебного пособия. Хабаровск Издательство. ТОГУ 2018 г. 258 с.
2. **Шалай В. В.**, Макушев Ю. П. Проектирование и эксплуатация нефтебаз И АЗС. Учебное пособие. Омск. ОмГТУ. 2010. 296 с.
3. **Hal Gularte.** How to Become a automobile-service-station Mechanic. Sam Enrico Williams, UK 2014.
4. Yo‘ldoshev O‘., Usmonov U., Qudratov O. «Mehnatni muhofaza qilish» (o‘quv qo‘llanma), Toshkent, Mehnat. 2001 y., 184 b.
5. Rahimova X., A‘zamov A., Tursunov T. «Mehnatni muhofaza qilish» (o‘quv qo‘llanma), O‘zbekiston, 2002 y. , 216 b.
6. A.Xodjaev Avtotransport korxonalari iqtisodiyoti. Toshkent-2001 yil.

Elektron ta’lim resurslari

www.gov.uz. (Ўзбекистон Республикаси ҳукуматининг расмий сайти)
www.lex.uz– O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
<http://www.logistika.uz/> - Transport logistikasining axborot portal.
<https://stat.uz/> - O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi rasmiy sayti.
<https://www.autostat.ru/>- «Автомобильная статистика».
<http://www.ural-k-s.ru/>. zamonaviy avtoservis jihozlarini ishlab chiqaruvchi “4АКБ-ЮГ” kompaniyasi, rasmiy sayti (Rossiya).
<https://www.sivik.ru/>-barcha turdagi avtomobillarga mo‘ljallangan zamonaviy avtoservis jihozlarini ishlab chiqaruvchi “SIVIK” kompaniyasi rasmiy sayti (Rossiya).